

SEMANTIKA VA GAPLARNING TUZILISHI

Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti.

Annotatsiya. Jamiyat hayotida va uni tashkil qiluvchi insonlar so‘zlashadigan tilning so‘z boyligi o‘rtasida juda yaqin bog‘liqlik mavjud. Moddiy madaniyatga tegishli bo‘lgan so‘zlar juda muhimdir, ijtimoiy urf-odatlar va muassasalarga, shuningdek, insonlarning qadriyatlari, o‘zaro munosabatlari hamda ularning bu dunyoda hayoti haqida qanday fikrda bo‘lishlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish semantikaning asosiy qismidir.

Kalit so‘zlar: semantika, ma’no va talqin, tom ma’no, majoziy ma’no, kontekst.

Semantika tildagi ma’noni o‘rganib, so‘zlarning, belgilarning va gap tuzilishining ma’nosini talqin etadi. Biz bilamizki, til tushunilishi mumkin bo‘lgan turli xil ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Har bir so‘zning ma’nolari bizning tafakkurimizda mavjud va biz tafakkurimizdagi tushunchalarni og‘zaki hamda yozma nutq orqali ifodalashimiz mumkin. Tilning tovush shakllari fonetika bo‘limida izchil o‘rganilsa, so‘z va gaplarning tuzilishi haqidagi ma’lumotlarga esa morfologiya va sintaksis bo‘limlari orqali ega bo‘lishimiz mumkin. Ushbu tilshunoslik bo‘limlari biz ma’lum bir gap yoki xabarning asl ma’nosini anglashimiz yoki suhbatdoshga yetkazishimiz uchun xizmat qiladi.

Semantika yunoncha sema so‘zidan olingan bo‘lib, til birliklarining mazmun qiymatini, ma’nosini tahlil qiladi [1].

“Semantika” terminining fanga kiritilishi va soha taraqqiyoti XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri kelishi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Lingvistik birliklar ma’nosi Qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi V-III asrlarda, Qadimgi Gretsiyada va o‘rta asr Yevropa an’analari, so‘ngra esa Uyg‘onish davri grammatikachilari va faylasuflari tomonidan tadqiq qilgan [2]. O‘rta Osiyo qomusiy olimlari semantika

masalalariga alohida e'tibor qaratishgan. Keyinchalik, semantikaning nazariy asoslari Alisher Navoiy tomonidan ilmiy asosda yoritilgan [3].

Semantikanning keyingi taraqqiyotida Ch.Pirs, F.de Sossyur va Ch. Morrisning qarashlari alohida ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida I. Qo'chqortoyevning so'z va uning ma'no valentligiga, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, Ra'no Sayfullayevalarning leksema, semema, semalarga, R.Rasulovning holat fe'llariga, Sh.M.Iskandarovaning otlardagi shaxs mikromaydoniga, N.R.Nishonovanning “hayvon” arxisemali leksemalar maydoni tahliliga, S.X.Muhamedovanning harakat fe'llari semantikasiga, H.Tojimatovning sifat semantikasiga bag'ishlangan ishlarini va boshqa olimlar tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. Sh. Safarov va M. Mirtojiyevlar o'zbek tili semantikasi va semasiologiyasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Semantikaning asosiy masalasi sifatida leksik ma'no va uning taraqqiyoti bilan bog'liq hodisalarni qayd qilish lozim [4].

Inson nutqida so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan tashqari ko'p ma'nolari mavjud. Semantikaning asosiy masalalaridan biri tom ma'no va ko'chma ma'noni farqlashdir [5]. Bunga o'xshatishni misol keltirsak bo'ladi. O'xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash”ga aytiladi [6]. Masalan, Men bo'ridek ochman. Ushbu gapda “bo'ridek” so'zining qo'llanilishi yegulikka katta ehtiyoj borligini ko'rsatish uchun ifodalangan

O'xshatishga asoslangan ma'no ko'chish turlari ham mavjud bo'lib, ulardan biri metafora deb yuritiladi.

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Masalan: odamning oyog'i – stolning oyog'i, odamning ko'zi – uzukning ko'zi, ko'ylakning etagi – tog'ning etagi kabi.

Ba'zi so'z ma'nolari aniq so'zma-so'z bo'lsa, boshqalari oddiy tasvir kabi ko'rinadigan narsaga kontekst qo'shadigan majoziy elementlarni o'z ichiga oladi. Semantikani o'rganish tilda ma'no qanday ishlashini ko'rib chiqadi va shuning uchun

u ko‘pincha tadqiqotga asoslanish uchun so‘z va iboralarning ma’nosi haqidagi ma’lumotlar uchun so‘zlashuvchining sezgilaridan foydalanadi. Biz hammamiz ongsiz darajada semantikani tushunamiz, biz gaplashayotganda bir-birimizni oson tushunamiz.

Semantika so‘z ma’nolarining o‘zaro bog‘lanish usullari ham mavjud. Bunda bizga semantik tahlil yordamga keladi.

Semantik tahlil - bu har qanday matn kontekstini tushunishga va jumlada tasvirlanishi mumkin bo‘lgan his-tuyg‘ularni tushunishga yordam beradigan

Semantik tahlilda so‘z birikmalar orasidagi munosabat aniqlanadi. Ba’zi munosabatlar giponimlar, sinonimlar, antonimlar, omonimlar va boshqalar [7].

Semantika tildagi munosabatlarni ko‘rib chiqadi va bu ma’nolar qanday yaratilganiga qaraydi, bu esa tilning qanday ishlashini tushunishning muhim qismidir. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, semantika bizning tilimizni ma’nodor qilish uchun foydalanadigan so‘z va ohanglar majmuasidir. Semantikaning o‘rganish obyekti ham, asosan, to‘liq, mustaqil ma’noli so‘zlar va gaplarning ma’nolar tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2002. – Б.22.
2. Жеребило Т.В. Лингвосемантическая парадигма в соотношении с лингвостилистикой // Lingua-universum. – 2006. – № 3. – С. 17-21
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami.10 jildlik.10-jild. Muhokamat ul-lug‘atayn. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013.-B.17
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – Б. 5.
5. Yulduzkhon, S. (2023, September). SYNTACTIC VALENCE AND SYNTACTIC RELATION. In E Conference Zone (pp. 4-6).

6. Shuxratova, Y., & Mamajonov, A. (2022). O ‘XSHATISH MUNOSABATINI IFODALOVCHI MORFOLOGIK VOSITALAR. Farg'ona davlat universiteti, (1), 38-38.
7. <https://monkeylearn.com/blog/semantic-analysis/>